

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik
va jamoat salomatligi qo‘mitasi
Toshkent shahar boshqarmasi boshlig‘i
Qudratxo‘jayeva M.B.
_____ **2023 yil**

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining Toshkent
shahar boshqarmasi Shayxontohur tuman bo‘limi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining Toshkent shahar boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda - Boshqarma) Shayxontohur tuman bo‘limining (keyingi o‘rinlarda—Bo‘lim) maqomini, asosiy vazifalarini, funktsiyalarini, huquqlarini va majburiyatlarini belgilaydi.

2. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Qo‘mita hamda boshqarma qarorlari, buyruq va ko‘rsatmalariga shuningdek, ushbu nizomga amal qiladi.

3. Bo‘lim o‘z faoliyatida Qo‘mitaning hududiy boshqarmasiga (keyingi o‘rinlarda – Boshqarma) bo‘ysunadi va hisobot beradi.

4. Bo‘lim yuridik shaxs hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan, muhrga va blankalarga, mustaqil ballansga, Moliya vazirligida shaxsiy g‘azna hisob varaqlariga, bank hisob raqamlariga ega bo‘ladi.

5. Bo‘lim o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari mahalliy ijro etuvchi hokimiyat o‘rganlari, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shu jumladan fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

6. Bo‘limning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to'liq nomi — O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining Toshkent shahar boshqarmasi Shayxontohur tuman bo'limi;

qisqartirilgan nomi - Sanepid bo'limi;

b) rus tilida:

to'liq nomi- Отдел Шайхантахурского района Ташкентское городское управление при Комитете санитарно-эпидемиологического благополучия и общественного здоровья Республики Узбекистан

qisqartirilgan nomi — Санэпид отдел.

7. Bo'limning joylashgan manzili (pochta manzili),: Toshkent shahar Shayxontohur tumani, Xadra mavzesi, 17A uy, почта индекси -100011.

2-bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari

8. Quyidagilar bo'limning vazifalari hisoblanadi:

Aholining sanitariya-epidemiologiyk osoyishtaligi sohasida hududiy davlat boshqaruvi organlari, korxona va tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va ular bilan hamkorlik qilishni ta'minlash;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amaldagi sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (SanQVaN) rioya qilinishi bo'yicha belgilangan tartibda tekshirishlar o'tkazish va sanitariya-epidemiologiya sohasida qonun buzilishlar bo'yicha belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlik choralari qo'llash;

oziq-ovqat xom-ash'yosi va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish faoliyati bilan shug'ullanuvchi ob'ektlar faoliyatida asoslangan me'yor va standartlar talablariga rioya qilinishi ustidan tasdiqlanga nmetodologiyalar asosida nazorat olib borish;

yuqumli, parazitar, shuningdek yuqumli bo'lmagan kasalliklarning yuzaga kelishi va tarqalishini oldini olishga qaratilgan epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyenik tadbirlarni tashkillashtirish va amalga oshirish;

sanitariya-gigiyena, bakteriologiya va parazitologiya laboratoriyalari faoliyatini yo'lga qo'yish;

inson salomatligiga ta'sir etuvchi xavfli omillar bo'yicha tizimli monitoringlarni tashkil qilish, amalga oshirish, tahlil qilish va tegishli hisobotlar yuritish;

yuqumli va parazitar kasalliklarning yuzaga kelishi va tarqalishini oldini olishga qaratilgan o'choqli dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya tadbirlari o'tkazilishini tashkil qilish va amalga oshirish;

sanitariya-epidemiologiya va jamoat salomatligini ta'minlash maqsadida xavf-xatarlarni barvaq taniqlashni ta'minlash, baholash va bartaraf etish uchun kelib chiqishi oziq-ovqat bilan bog'liq kasalliklar ustidan monitoringlar olib borish;

o'ta xavfli yuqumli infeksiyalar bo'yicha epidemiologik nazorat olib borish hamda profilaktik va epidemiyaga qarshi kompleks tadbirlarini o'tkazish;

turli ijtimoiy guruhlarni qamrab olgan holda, sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun sanitariya-gigiyenik o'qitishni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'tkazish;

sohaga oid statistik ma'lumotlarni yuritish, to'plash, tahlil qilish, aholi salomatligiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadida zarur tekshirishlar va so'rovlar o'tkazish;

Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarni amalga oshirish, soha yo'nalishlari bo'yicha hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarga yechim topish, aholi uchun qulay sharoitlar yaratish, fuqarolarning tizimli muammolarini hal etish, tadbirkorlik faoliyatini xar tomonlama qo'llab-quvvatlash.

9. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) aholining sanitariya-epidemiologiya sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini samarali muvofiqlashtirish va ular bilan hamkorlik qilishni ta'minlash sohasida:

tashkilot va korxonalar bilan hududida sanitariya-epidemiologiya osoyishtalikni ta'minlash, shu jumladan karantin, o'ta xavfli va boshqa infeksiyalarni, aholi uchun o'ta xavfli bo'lgan tovar va yuklar O'zbekiston Respublikasi chegarasidagi o'tkazish punktlaridan olib kirilishi, olib o'tilishi va tarqatilishining oldini olish borasidagi kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishini tashkil etadi;

Davlat veterinariya qo'mitasi bilan birga kasallik keltirib chiqaruvchi manbalarni yo'q qilishga, antroponoz va zooantroponoz infeksiyali va parazitlar kasalliklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi.

b) yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (SanQVaN) rioya qilinishi bo'yicha belgilangan tartibda tekshirishlar o'tkazish va sanitariya-epidemiologiya sohasida qonun buzilishlar bo'yicha ma'muriy javobgarlik choralarini belgilangan tartibda qo'llash sohasida:

belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan, sanitariya-epidemiologiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi ustidan belgilangan tartibda davlat sanitariya-epidemiologiya nazoratini (keyingi o'rinlarda-nazorat) laboratoriya va instrumental tadqiqot usullarini qo'llagan holda amalga oshiradi;

oziq-ovqat xomashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi, shu jumladan umumiy ovqatlanish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlarida tekshiruvlar o'tkazadi;

iste'molchilarni vodoprovod suvi bilan ta'minlaydigan, oqova suvlarni chiqarib tashlaydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tekshiruvlar o'tkazadi;

qonun hujjatlariga ko'ra xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan savdo va aholiga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan, shu jumladan sartaroshxona va kosmetologiya xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlarida tekshiruvlar o'tkazadi;

aholiga diagnostika, davolash-profilaktika xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlarida tekshiruvlar o'tkazadi;

aholiga tibbiy xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlarida tekshiruvlar o'tkazadi;

nazoratdagi ob'ektlar ishchi-xodimlarini majburiy, dastlabki va davriy tibbiy ko'rikni o'tkazish tartibi va davriyligini hamda tibbiy tashkilotlar tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tkazilishining to'liqligini nazorat qiladi;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan umumiy ovqatlanish ob'ektlarida ratsional va xavfsiz ovqatlanishni tashkil etilishi ustidan sanitariya qoidalari, normalari vagigiyena normativlarning bajarilishini nazorat qiladi;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ionlashtirmaydigan nurlanish, shovqin, tebranish va inson salomatligi hamda atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan boshqa fizik omillar bilan ishlashda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etilishini nazorat qiladi;

nazorat ob'ektlarida o'tkir va surunkali kasb kasalliklarini kelib chiqishi holatlari ustidan nazorat qiladi;

yuqumli va parazitar kasalliklar manbai bo'lgan, shuningdek, tibbiy ko'riklardan o'z vaqtida o'tmagan shaxslarni vaqtincha ishdan chetlashtirish to'g'risida ish beruvchilarga taqdimnoma kiritadi.

d) oziq-ovqat xom - ash'yosi va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish faoliyati bilan shug'ullanuvchi ob'ektlar faoliyatida asoslangan me'yor va standartlar talablariga rioya qilinishi ustidan tasdiqlangan metodologiyalar asosida nazorat olib borish sohasida:

oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish jarayonlaridagi sanitariya-epidemiologik holatlarni nazorat qiladi va mahsulotlarning xavflilik darajalarini mezonlari bo'yicha tasniflaydi;

oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanish holatlari bo'yicha epidemiologik surishtiruvlar o'tkazadi va bu haqda belgilangan tartib bo'yicha xabar beradi va tarqalib ketishini oldini olishga qaratilgan epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyenik tadbirlarni o'tkazadi.

e) yuqumli, parazitar, shuningdek yuqumli bo'lmagan kasalliklarning yuzaga kelishi va tarqalishini oldini olishga qaratilgan epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyenik tadbirlarni tashkillashtirish va amalga oshirish sohasida:

hududlarga karantin va o'ta xavfli, yuqumli va parazitar kasalliklarning kirib kelishi va tarqalishining oldini olish bo'yicha sanitariya-gigiyenik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni o'tkazadi;

yuqumli kasalliklarning immunoprofilaktikasi sohasida aholi orasida o'tkaziladigan profilaktik emlashlarning muddatlari, sifati va samaradorligini nazorat va tahlil qiladi;

yuqumli va parazitar kasalliklar o'choqlarida surishtiruv ishlarini o'tkazadi, sanitariya-gigiyenaga oid va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish ustidan nazorat qiladi;

aholi yashash punktlarini rivojlantirish va yer uchastkalari ajratish bo'yicha loyiha materiallarini, xo'jalik va sanoat ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish -loyihalarini ko'rib chiqishda va xulosa berishda ishtirok etadi;

ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilishda, korxonalarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashda tegishli gigiyenik xulosalar beradi;

inson salomatligi va atmosfera havosi uchun zararli fizik omillar orqali ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektlarning ro'yxatini vahisobini olib boradi hamda nazorat olib boradi.

f) laboratoriyalar faoliyatini yo'lga qo'yish sohasida:

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amaldagi SanQvaNga rioya qilinishi bo'yicha olingan (keltirilgan)namunalarda sanitariya-gigiyena,bakteriologiya va parazitologiya laboratoriya tahlillarini o'tkazadi;

tashqi muhit ob'ektlaridagi inson sog'lig'iga ta'sir qiluvchi omillar bo'yicha tahlildan o'tkazadi;

bakteriologik va parazitologik kasalliklarning qo'zg'atuvchilarini aniqlash bo'yicha tahlillar olib boradi.

g) inson salomatligiga ta'sir etuvchi xavfli omillarni boshqarish, tizimli monitoringini olib borish va tahlil qilishning yangi shakl va usullarini amaliyotga joriy etish sohasida:

inson salomatligiga ta'sir etuvchi xavfli omillarni aniqlaydi, tizimli monitoringini olib borishni tashkil qiladi va olib boradi;

o'tkazilgan monitoring natijalari tahlil qiladi hamda monitoring shakl va usullarni amaliyotga joriy yetadi.

h) yuqumli va parazitar kasalliklar yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan profilaktik dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya tadbirlari o'tkazilishini tashkil qilish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish sohasida:

yuqumli va parazitar kasalliklar yuzaga kelishining oldini olishga va ularni kamaytirishga, ular yuqish yo'llari va omillariga ta'sir ko'rsatishga va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq bo'lgan epidemiologik asoratlar oqibatlarini tugatishga qaratilgan profilaktik va o'choqli dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya, epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkaziladi.

i) sanitariya-epidemiologiya va jamoat salomatligini ta'minlash maqsadida xavf-xatarlarni barvaqt aniqlashni ta'minlash, baholash va bartaraf etish uchun kelib chiqishi oziq-ovqat bilan bog'liq kasalliklar ustidan milliy monitoringlar olib borish va muvofiqlashtirish sohasida:

aholining turli guruhlari bo'yicha ovqatlanish me'yori va ko'rsatkichlarini baholaydi, aholining ovqatlanish sifati bilan bog'liq bo'lgan salomatlik holatini o'rganadi;

noto'g'ri ovqatlanish bilan bog'liq kasalliklarning oldini olish tadbirlarini o'tkazadi, aholining sog'lom turmush tarzi bo'yicha ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda keng targ'ibo tishlarini o'tkazadi;

tibbiyot muassasalari va uyushgan bolalar ta'lim ob'ektlarida ratsional ovqatlanish holatlarini o'rganadi;

mahalliy ishlab chiqariladigan va xorijdan keltirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari va oziq-ovqat xomashyosining sanitariya-epidemiologik xavfsizligini nazorat qiladi;

oziq-ovqat mahsulotlari bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni oldini olish maqsadida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqish, saqlash, tashish va savdosi bo'yicha o'rnatilgan tartibda nazorat qiladi;

ommaviy ovqatdan zaharlanish va oziq-ovqat mahsulotlari orqali yuzaga keladigan yuqumli kasalliklarni ro'yxatga olish bo'yicha elektron ma'lumotlar yuritadi, ularni erta aniqlash va xavflarni bartaraf etish choralari ko'radi;

tadbirkorlik sub'ektlariga o'rnatilgan tartibda "Sanitariya-epidemiologiya-osoyishtalik belgisi"ni beradi.

j) o'ta xavfli yuqumli infeksiyalar bo'yicha epidemiologik nazorat olib borish hamda profilaktik va epidemiyaga qarshi kompleks tadbirlarini o'tkazish sohasida:

o'ta xavfli yuqumli infeksiyalar bo'yicha epidemiologik nazoratini olib boradi;

aholini karantin va o'ta xavfli kasalliklar epidemiyalaridan muhofaza qilish masalalari bo'yicha belgilangan shakllar va tartib asosida nazorat olib boradi.

k) turli ijtimoiy guruhlarini qamrab olgan holda, sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun sanitariya-gigiyenik o'qitishni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'tkazish sohasida:

fuqarolarni gigiyenaga oid o'qitish va tarbiyalash borasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni ta'minlaydi;

faoliyati oziq-ovqat xomashyosi, oziq-ovqat mahsulotlari, ichimlik suvi va kimyoviy moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va sotish, aholiga maishiy va kommunal xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xodimlarni, shuningdek, tibbiyot, ta'lim tashkilotlari xodimlarini ishga qo'yishdan oldin va ish faoliyati davomida to'lov-kontrakt asosida sanitariya-gigiyena bo'yicha ta'lim berilishini amalga oshiradi;

sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va aholining sanitariya bo'yicha savodxonligini oshirish maqsadida maxsus materiallar va dasturlar asosida ommaviy axborot vositalarida chiqishlar va boshqa targ'ibot ishlarini o'tkazadi.

i) sohaga oid statistik ma'lumotlarni yuritish, to'plash, tahlil qilinishiga uslubiy rahbarlik qilish, -aholi salomatligiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadida zarur tekshirishlar va so'rovlar o'tkazish sohasida:

bo'limlar faoliyatga bog'liq barcha statistik ma'lumotlarni to'playdi, umumlashtiradi va tahlil qiladi hamda belgilangan muddatlarda Boshqarmaga taqdim etadi;

aholining salomatlik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash maqsadida zarur tekshirishlar va so'rovlar o'tkazadi.

m) sohaning joriy va kelgusidagi ehtiyojlarini hisobga olgan holda, kadrlarni o'qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkillashtirish sohasida:

bo'lim mutaxassislarini o'qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni rejalashtiradi va o'rnatilgan tartibda tashkillashtiradi;

bo'limlarda kadrlar zahirasi shakllantiradi;

n) Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarni amalga oshirish, soha yo'nalishlari bo'yicha hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarga yechim topish, aholi uchun qulay sharoitlar yaratish, fuqarolarning tizimli muammolarini hal etish, tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash sohasida:

budjet mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanadi;

energiyani tejaydi, uning samaradorligini oshiradi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng jalb qiladi;

davlat-xususiy sheriklik va autsorsing mexanizmlarini keng joriy qiladi;

tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashadi, davlat xizmatlari ko'rsatishning zamonaviy modeldarini takomillashtiradi;

xorijiy investitsiya, dasturiy grant va texnik ko'mak mablag'larini jalb etadi;

korruptsiya xavfi yuqori bo'lgan sohalardakorruptsiya omillarini bartaraf etadi;

sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etadi va ish jarayonini raqamlashtiradi.

Sanitariya-epidemiologiya va jamoat salomatligi sohasida qonun hujjatlariga muvofiq ravishda boshq vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Bo'limning huquqlari va javobgarligi

10. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga egadir:

davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatida sanitariya-epidemiologiya sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini o'rganish;

davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlariga sanitariya-epidemiologiya sohasida aniqlangan huquq buzarlilar, ularga imkon beruvchi omillar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish;

sanitariya-epidemiologiya sohasidagi qonun hujjatlarining buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida mansabdor shaxslarni yozma ravishda ogohlantirish;

yuridik va jismoniy shaxslarga ob'ektlarda yo'l qo'yilgan huquqbuzarliklarni bartaraf qilish uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;

karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi hamda tarqalishi sharoitida epidemiyaga qarshi kurashish qoidalarini buzishga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan tegishli asosli ravishda karantinda saqlash yoki davolanish tarzidagi tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash;

yuqumli va parazitar kasalliklar tarqalishining oldini olish maqsadida, xo'jalik va boshqa faoliyatlarning alohida tartibini, aholi, transport vositalari, yuklar va (yoki) tovarlar harakatlanishining cheklanishini nazarda tutadigan karantin chora-tadbirlarini amalga oshirish;

inson hayoti va salomatligi uchun jiddiy xavf tug'diruvchi yuqumli kasalliklar tarqalishi yoxud texnogen yoki tabiiy xususiyatga ega halokatlar sodir bo'lishining real

xavfi vujudga kelganda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar ob'ektlarda maqsadli tekshirishlar o'tkazish;

favqulodda vaziyatlarda, epidemiyalar hamda aholining hayoti va sog'lig'i uchun boshqa haqiqiy xavf yuzaga kelganda, ommaviy zaharlanish va guruhli kasalliklar qayd etilganda (davolash muassasasi xabari, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari va boshqa hollarda) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida tekshiruvlar o'tkazish;

ozuq-ovqat xom ash'yosi va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish faoliyati ustidan inspeksion nazorat o'tkazish;

davlat organlari va mansabdor shaxslardan boshqarmaga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va axborotlarni, shu jumladan statistik ma'lumotlarni so'rash va bepul olish;

o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan ro'yxat va tariflarga muvofiq pullik xizmatlar ko'rsatish;

o'z vakolati doirasida konferensiyalar, seminarlar o'tkazish hamda boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilayotgan shunday tadbirlarda ishtirok etish;

sanitariya-epidemiologiya masalalari sohasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish;

aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi bilan bog'liq masalalarni hay'at yig'ilishlarida ko'rib chiqishda ishtirok etish;

boshqarma xodimlarini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Bo'lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

11. Bo'lim:

Sanitariya-epidemiologiya va jamoat salomatligi sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi;

yuklangan vazifalar va funksiyalarning o'z vaqtida hamda to'liq bajarilishi;

faoliyat bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlash ishlarining tashkil etilishi;

sanitariya-epidemiologiya va jamoat salomatligi sohasini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlar, is hrejalari, tadbirlar, yo'l xaritalari va boshqa dasturiy hujjatlarning amalga oshirilishi bo'yicha javobgar hisoblanadi.

4-bob. Bo'lim faoliyatini tashkil etish

1-§. Bo'limning faoliyatini tashkil etish

12. Bo'limga Boshqarma boshlig'i – Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan Bo'lim boshlig'i (bir vaqtda Bosh davlat sanitariya vrachi) rahbarlik qiladi.

13. Epidemiologiya va immunoprofilaktika hamda sanitariya-gigiyena bo'lim mudirlari boshqarma boshlig'i bilan kelishilgan holda bo'lim boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

2-§. Bo'lim rahbarining funksional majburiyatlari

14. Yuklangan vazifalarga muvofiq bo'lim rahbarlari quyidagi funksional majburiyatlarni bajaradi:

a) Bo'lim rahbari:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etadi;

Bo'lim mudirlarining faoliyat yo'nalishlari va uchastkalariga rahbarlik qilish bo'yicha vakolatlarni va shaxsiy javobgarligi darajasini belgilaydi;

o'z vakolatlari doirasida bo'lim uchun bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

belgilangan tartibda ishga qabul qilish va bo'lim xodimlari bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qilishishlarini amalga oshiradi, shuningdek, ularning samarali mehnat qilishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi va kadrlar zaxirasini shakllantiradi;

bo'lim xodimlarining lavozim yo'riqnomalari tasdiqlaydi;

"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslardan tushgan murojaatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

Bo'lim o'zining "Maxsus jamg'arma"sini (keyingi o'rinlarda-Jamg'arma) tashkil etadi va uning faoliyati uchun javob beradi;

Bo'linmalar faoliyatini rejalashtiradi, ish rejalarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlaydi;

qonunchilikra muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

b) Epidemiologiya va immunoprofilaktika hamda sanitariya-gigiyena bo'lim mudirlari:

yuklangan vazifalarni bajarishda tegishliligi bo'yicha bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtiradi va ko'rsatmalar beradi;

o'zining bo'ysunuvidagi bo'linmalar faoliyatiga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi;

Bo'lim boshlig'iga mavjud lavozimlarga nomzodlar kiritadi;

o'zining bo'ysinuvidagi bo'linmalar mutaxassislarini rag'batlantirish yoki intizomiy jazo choralarini qo'llash to'g'risidagi takliflarni kiritadi.

3-§. Bo'lim rahbarining javobgarligi

15. Bo'lim rahbari:

Ushbu nizom hamda boshqa qonun hujjatlari bilan o'ziga yuklangan vazifalarni sifatli va o'z vaqtida bajarilishi, shuningdek, boshqarma va bo'limlar ishidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilishi;

amalga oshirilayotgan dasturlar, strategiyalar va konsepsiyalar bo'yicha kutilgan natijalarga erishilishi;

jamoa tomonidan ijro intizomiga to'liq rioya etilishi;

tegishli yo'nalishlar bo'yicha topshiriqlarni o'z vaqtida va to'laqonli bajarilishi;

faoliyat yo'nalishlari bo'yicha yuklatilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash uchun ko'rilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi va natijadorligi uchun javob beradi.

4-§. Bo'limning mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa hududiy idoralar va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi

16. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalarni bevosita hududiy Sog'liqni saqlash bo'limi va uniing tarkibiy bo'linmalari bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

17. Bo'lim ma'muriy xududda sodir bo'ladigan turli epidemik va texnologik holatlarda tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirilishida mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqarmalar, idoralar va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

5-bob. Bo'lim faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari

18. Bo'limlarning faoliyat samaradorligi va natijadorligini baholash yakunlari bo'yicha rahbar va xodimlarni rag'batlantirish (mukofotlash) yoki intizomiy choralar qo'llash, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

6-bob. Bo'limni moliyalashtirish va moddiy-texnika bazasini ta'minlash, xodimlarning mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ximoya qilish

19. Bo'limni moliyalashtirish va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, shu jumladan xodimlarining mehnatiga haq to'lash Davlat budjeti va qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

20. Quyidagilar qo'shimcha mablag'larini shakllantirish manbalari etib belgilanadi:

Faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan;

budjet tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotlariga homiylik (beg'araz) yordami berilishidan qo'shimcha daromadlar;

qonun hujjatlari bilan ta'qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

21. Jamg'arma mablag'laridan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

Bo'lim xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minlash, shu jumladan uy-joyni ijaraga olish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash, shuningdek, xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etishga;

bo'limning farmoyish berish va boshqarish funksiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarini qoplashga;

bo'limning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga.

22. Bo'lim xodimlarining ish haqqi lavozim maoshidan, ko'p yil xizmat qilganligi uchun ustama haqlardan, dam olish va bayram kunlari uchun to'lovlar, boshqa ustama, qo'shimcha haqlar va qonunda nazarda tutilgan boshqa to'lovlardan iborat bo'ladi.

7-bob. Bo'limning hisobdorligi

23. Bo'lim tizimli ravishda o'zining faoliyati bo'yicha boshqarmaga oylik, choraklik va yillik hisobotlar beradi.

24. Bo'lim rahbari xodimlariga yuklangan vazifalarning to'laqonli bajarilishi bo'yicha ularning faoliyati yuzasidan muntazam monitoring olib boradi va xolisona baho beradi. Monitoring va baholash yakunlari bo'yicha alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantiradi yoki yo'l qo'yilgan kamchiliklar uchun egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan intizomiy choralar qo'llaydi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

25. Ushbu nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxsla qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

26. Ushbu nizom 2023 yil 25 iyul sanasida Shayxontoxur tuman bo'limining kengash yigilishida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik
va jamoat salomatligi qo'mitasining
Toshkent shahar boshqarmasi
Shayxontoxur tuman bo'limi boshlig'i



I.X.Normatov